

HAKAMLIK SUDLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**Baxromov Komilxo'ja Yoqubjon o'g'li***Toshkent davlat yuridik universiteti**Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari**yo'nalishi magistr bosqichi talabasi*

Annotatsiya: *Hakamlik sudlarining ahamiyatini oshirish maqsadida tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar hamda davlat sudlari darajasiga yetishida olib borilayotgan ishlar haqida izlanishlar qilingan.*

Kalit so'zlar: *Hakamlik sudi, Arbitraj sudi, Davlat sudi, Iqtisodiy sudlar, Fuqarolik sudlari, mediatsiya.*

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada kuchaytirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlash, qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu islohotlarning muhim yo'nalishi bo'lgan sud-huquq tizimini liberallashtirishning hozirgi bosqichida hakamlik sudlari nizolarni muqobil hal qilishning fuqarolar va tadbirkorlar ishonchiga sazovor bo'ladigan instituti sifatida qaror topdi va samarali faoliyat yuritmoqda.²⁴

Hakamlik sudi – fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ. Hakamlik sudi nizolarni O'zbekiston Respublikasining qonunlari va qonunosti hujjatlari asosida hal qiladi.

Hakamlik sudi bevosita xalqaro doirada qo'llanishi arbitraj sudi orqali amalga oshiriladi bazi davlatlarda faqatgina arbitraj sudi faoliyat ko'rsatadi ammo O'zbekistonda Arbitraj sudlari va hakamlik sudlari alohida alohida nizolarini muqobil hal etish usuli hisoblanadi.

Arbitraj - bu nizo tomonlarning kelishuviga ko'ra, nizo bo'yicha majburiy qaror qabul qiladigan bir yoki bir nechta hakamlarga topshiriladigan protsedura. Arbitrajni tanlashda tomonlar sudga murojaat qilish o'rniga nizolarni hal qilishning xususiy tartibini tanlaydilar.

Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

Arbitraj faqat ikkala tomon rozi bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Kelajakda shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar tegishli shartnomaga hakamlik sudining bandini kiritadilar. Mavjud nizo tomonlar o'rtasida taqdim etish to'g'risidagi kelishuv orqali hakamlik sudiga yuborilishi mumkin. Mediatsiyadan farqli o'laroq, taraf bir tomonlama ravishda hakamlik sudidan chiqa olmaydi.

²⁴ O'zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi raisi, hakamlik sudyasi Hamza Mahmudov
Batafsil: <https://kknews.uz/oz/71189.html>

WIPO qoidalariga muvofiq, tomonlar arbitraj sudining qarorini kechiktirmasdan bajarishga kelishib oladilar. Xalqaro mukofotlar milliy sudlar tomonidan Nyu-York konventsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi, bu esa ularni juda cheklangan hollardagina bekor qilishga ruxsat beradi. 165 dan ortiq davlatlar ushbu Konventsiya ishtirokchisidir.²⁵

Hakamlik sudlarining foydali tomonlari bormi? Bu uni ahamiyatiga qanchalik ta'sir ko'rsatadi? Davlat sudlarini ortda qoldira oladimi? kabi savolarga quydagicha solishtiruvlar orqali javob olishimiz mumkin.

1. Eng katta farqlardan biri bu hakamlik sudida ishlar tezkorlik bilan hal etiladi. Hakamlik sudida faqat bitta bosqichdan iborat bo'lib, boshqa sudlar kabi apellyatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyalari mavjud emas.

Amerika Advokatlar Assotsiatsiyasining ta'kidlashicha, hakamlik ishining boshidan yakuniy qaror chiqarilishigacha bo'lgan o'rtacha vaqt taxminan etti oyni tashkil qiladi, fuqarolik ishlari bo'yicha o'rtacha vaqt esa sud qanchalik band bo'lishiga qarab 23 oydan 30 oygacha davom etadi.

2. Hakamlik bitimi tomonlari jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilmaydi;

3. Hakamlik sudi jarayoni uchun xarajatlar hakamlik sudi sudiyasining to'lovi (da'voning hajmiga, hakamlik ekspertizasi va xarajatlarga qarab) va advokat to'lovlari bilan cheklangan. Shuningdek, siz hakamlik uchun joyning narxini to'lashingiz kerak bo'lishi mumkin.

Davlat sudi jarayoni uchun xarajatlarga advokat to'lovlari, sudgacha bo'lgan so'rovlar va so'roqlar, hujjatlarni tekshirish va sud xarajatlari kiradi, ular juda yuqori bo'lishi mumkin.

4. Hakamlik sudining asosiy maqsadi taraflarning kelishuviga boshlaydi hamda taraflar o'rtasida ixtiyoriy hamkorlikni vujudga keltiradi;

5. Hakamlik sudi tomonidan iqtisodiy hamda fuqarolik ishlari ko'rib chiqib, hal etiladi. Ammo fuqarolik sudlarida faqat fuqarolarga oid nizolar ko'riladi, iqtisodiy sudlarda esa faqat yuridik shaxslarga oid iqtisodiy nizolari ko'riladi;

6. Hakamlik muhokamasining maxfiyligi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi qonun bilan kafolatlanadi:

*"Hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni hakamlik muhokamasi taraflari yoki ularning huquqiy vorislari roziligisiz oshkor qilishga haqli emas. Hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlar haqida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas"*²⁶ kabi qoidalar belgilangan.

7. Hakamlik sudlari yig'imi miqdori Fuqarolik yoki iqtisodiy ishlar bo'yicha sudda ko'rilganda, to'lanadigan davlat bojining 50 foyizidan oshmaydi.

8. Hakamlik sudining hal qiluv qarori esa qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi;

²⁵ <https://www.wipo.int/amc/en/arbitration/what-is-arb.html>

²⁶ "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi qonuning 28-moddasi: <https://lex.uz/docs/-1072079#-1072324>

9. Iqtisodiy va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar hakamlik sudi tomonidan aniqlangan holatlarni tekshirishga yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas:

“Vakolatli sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas”²⁷

10. Qonun bilan kafolatlangan yana bir jihati shundan iboratki hakamlik sudining hal qiluv qarori ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda, uni tegishli tartibda majburiy ijroga qaratish mumkin. Bunda Hakamlik sudining ixtiyoriy bajarilmagan qarori vakolatli sudga taqdim qilinib, ijro varaqasini olish orqali amalga oshiriladi.²⁸

Yuqorida ko'rsatilgan ustun tomonlarga qaramasdan O'zbekistonda hakamlik sudi o'ni davlat sudlariga qaraganda ancha past.

O'zbekiston Respublikasida Hakamlik sudlari tashkil etilganidan so'ng nizolarni muqobil hal etish sohasida yangilik paydo bo'ldi ya'ni hakamlik sudlari orqali nizolarni hal etish boshlandi. Bu sudlarga bo'ladigan yuklardan xalos etish maqsadida Prezidentimizning 2020 yil 17 iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajning rolini tubdan oshirish, ularning fuqarolar hamda tadbirkorlarning faoliyatida paydo bo'ladigan nizolarni hal etishda katta kuch bo'lishi belgilangan edi.

Ammo, hozirda hakamlik sudlari haqida eshitgan va bilgan fuqarolar yoki tadbirkorlar salmoqli. Hakamlik sudlarining ahamiyatini bilish uchun hakamlik sudlarida olib boriladigan ishlar miqdoriga nazar tashlasak barchasi oydinlashadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari huzurida tashkil qilingan 15 ta Hakamlik sudlari tomonidan 2007-2017 yillar mobaynida jami 10446 ta ishlar ko'rilgan bo'lib, da'vo summasi 503,5 mlrd. so'm, 54,2 mln. AQSH dollari, 195,1 ming Yevroni tashkil qilgan. 2017 yilda Hakamlik sudlari tomonidan 2465 ta ishlar ko'rilgan bo'lib, da'vo summasi 114,2 mlrd. so'm, 5,4 mln AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu 2016 yilda ko'rilgan ishlar soniga nisbatan 1204 taga ko'pdir.²⁹

2007 va 2017 yillar orasida ya'ni 10 yilda bor yo'g'i 10446 ta ish ko'rilgan bundan tashqari, bu ko'rilgan ishlar 15 ta hakamlik sudi orqali hal etilgan. Bularga solishtirish maqsadida Davlat Iqtisodiy sudlarning birinchi chorakda ko'rgan ishlariga nazar tashlaymiz. Birgina 2023 yilning birinchi choragi davomida 85.581 ta ish iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rilgan.³⁰ Bu albatta iqtisodiy sudlar ko'rgan ishlar butun respublikada ko'rilgan ishlar hisoblanadi. Lekin 10 yilda ko'rilgan ishlar bilan 3

²⁷ “Hakamlik sudlari to'g'risida”gi qonuning 47-moddasi birinchi qismi: <https://lex.uz/docs/-1072079#-1072324>

²⁸ K.Baxromov, ADVANTAGES OF ARBITRATION COURTS OVER STATE COURTS, 2022.: Batafsil: <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2982>

²⁹ Hakamlik sudlari va xalqaro tijorat arbitraji faoliyati natijalari va ularning rivojlanish istiqbollari muhokamasi. Batafsil: <https://chamber.uz/uz/news/1774>

³⁰ <https://stat.sud.uz/iib.html>

oy ichida ko‘rilgan ishlar orasidagi tafovut juda kata. Bundan ko‘rinadiki O‘zbekiston Respublikasida Hakamlik sudlarining ahamiyati hali juda past.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Hakamlik sudlari O‘zbekiston Respublikasida yangi institut bo‘lib uni tashkil etilganiga oz fursat bo‘ldi. Hakamlik sudining obrosini oshirish va uning ahamiyatini kuchaytirish borasida bugungi kunga qadar salmoqli ishlar amalga oshirildi shu qatorda hakamlik sudlarining yuqoridagi ko‘rib chiqqan tahliliy ma’lumotlar uni rivojlantirish va ahamiyatini ko‘tarish uchun foydalanishga qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi va olimlarning yangi izlanishlari orali yanada kengayib borishidan umidvormiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi raisi, hakamlik sudyasi Hamza Mahmudov
Batafsil: <https://kknews.uz/oz/71189.html>
2. “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi qonuning 28-moddasi: <https://lex.uz/docs/-1072079#-1072324>
3. K.Baxromov, ADVANTAGES OF ARBITRATION COURTS OVER STATE COURTS, 2022.:
Batafsil: <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2982>
4. Hakberdiev A.A. Challenges of arbitration in reforming civil and economic procedural processes //Archive of Conferences. - 2021. - S. 159-162.
5. <https://www.wipo.int/amc/en/arbitration/what-is-arb.html>
6. Hakamlik sudlari va xalqaro tijorat arbitraji faoliyati natijalari va ularning rivojlanish istiqbollari muhokamasi. Batafsil: <https://chamber.uz/uz/news/1774>
7. <https://stat.sud.uz/iib.html>
8. 27. Аvezова, Д. (2022). статья Стихи Есенина были его судьбой. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
9. 28. Shaxnoza, A. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. Journal of Modern Educational Achievements, 3, 33-38.
10. 29. Артикова, Ш. М. (2023). Специфика Функционирования Плеоназмов В Русском И Английском Языках. Miasto Przyszłości, 33, 250-254.
11. 30. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF APPEAL IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH INTERNATIONAL LANGUAGES. Conferencea, 144-145.
12. 31. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH DIFFERENCE INTERNATION LANGUAGES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 55-59.
13. 32. Artikova, S. M. (2020). About the importance of teaching foreign languages in the republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 5(85), 79-83.

- 14.33. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. *Theoretical & Applied Science*, (5), 79-83.
- 15.34. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF APPEAL IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. *Conferencea*, 142-143.
- 16.35. Artikova, S. (2022). FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 60-63.
- 17.36. Артикова, Ш. М., & Муминова, М. А. (2011). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ. *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА*, 55.
- 18.